

**NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA
HISOBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

YAQUBOVA NODIRA OLIM QIZI

Mamun Universiteti ,NTM

“Buxgalteriya hisobi va Biznes Boshqaruvi”

kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya: Jahonda ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari intellektual rivojlangan, raqobatbardosh komil insonni tarbiyalash - eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” sohadagi yangi islohotlar uchun dasturulamal vazifasini bajarmoqda. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, xususiy ta'lim tashkiloti, davlat-xususiy sherikchili ta'lim xizmatlari, moliyalashtirish, raqobat, foyda, litsenziya, buxgalteriya hisobi va audit.

KIRISH

Keyingi yillarda oliy talim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, ularni zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash, xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan o'quv-uslubiy materiallar va o'quv dasturlari, yetakchi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy qilish orqali o'quv sifatini oshirish masalalariga keng e'tibor qaratilyapti.

Bugungi kunda davlat oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda xususiy nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tubdan takomillashtirish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlash, ularning faoliyati erkin tadbirkorlik muhitida rivojlantirish uchun ularga mavjud huquqiy –normativ qonunchilik asosida ularning boshqaruv, soliq, buxgalteriya va audit tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo mamlakatlarda oliy ta'limni rivojlantirish uchun jami xarajatlar, hisob-kitoblarga ko'ra, har yili O'rtacha 0,8 foizga ortgan. Ushbu maqsadlar uchun YaIMning o'rtacha 1,4 foizini, Kanada, Chili, Buyuk Britaniya va AQShda oliy ta'limga sarflangan

mablag' yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 3 foizini tashkil qildi. IHTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlari davlati, korxonalari va uy xujaliklari har bir talaba uchun O'rtacha 17 100 AQSh dollari, shundan 68 foizi asosiy xizmatlar, 32 foiz qo'llab-quvvatlash xizmatlari va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun sarfladi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini hisobga olmaganda, ko'rib chiqilayotgan mamlakatlarda har bir talaba uchun sarflangan mablag' o'rtacha 11 700 AQSh dollarini tashkil qiladi.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, jahon amaliyotida oliy ta'limni moliyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda va bunda nodavlat ta'lim tashkilotlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, QS(Quacquarelli Symonds) World Universiteti Rankings ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yildagi "Eng yaxshi jahon universitetlari reytingi"dagi TOP-10 talikda 4 ta AQSh, 4 ta Buyuk Britaniya xususiy universitetlari o'rin olganligi buning yaqqol tasdig'idir. Shunga ko'ra, AQShda nodavlat oliy ta'limi davlat oliy ta'limini, nafaqat, ko'lami, balki, sifati, tanlashning jiddiyliigi va obro'-e'tibori bo'yicha ham ortda qoldiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Nodavlat notijorat tashkilotlarda buxgalteriya hisobining tashkiliy – huquqiy jihatlari ayrim xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular jumlasiga B.Nidlz, X.Anderson, D.Kolduell kabilarni kiritish mumkin. Jumladan MDH mamlakatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va uni yuritishning ayrim masalalari V.F Paliy ,P,Y.Gamolskiy, Y.V Sokolov, M.L Pyatov, G.Y. Qasyanova, A.V. Nachalov, N.A .Pirojkova, va boshqa O'zimizning olimlar tomonidan tadqiq qilingan, xususan Nodavlat notijorat tashkilotlarining ayrim umumiy buxgalteriya hisobi xususiyatlari to'grisida A.S.Sotvoldiyev, A.A.Karimov, A.K.Ibragimov, A.X.Pardayev, B.A.Xasanov, M.Q.Pardayev, N.Y.Haydarov kabi olimlarning ilmiy asarlarida tadqiq qilingan.¹ Lekin aynan nodavlat oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va auditni yo'lga qo'yilishi borasida maxsus belgilangan tizim mavjud emas. Shu zaruriyatlarni hisobga olgan holda bu sohada ko'plab ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar o'tkazish zaruratini belgilaydi.

Mamlakatimizda nodavlat , notijorat ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va yuritish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining konsitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RBQ 637-sonli "Ta'lim to'grisida"gi qonuni, Fuqarolik va Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RBQ-404 sonli "Buxgalteriya hisobi to'grisida"gi va O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-maydagi O'RBQ 537-sonli O'zbekiston Respublikasining "Davlat xususiy-sherikchilik to'grisida" gi,

¹ Hojiev Mehridin Sulaymanovich "Nodavlat ,notijorat tashkilotlarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish" mavzusida dissertatsiya ishi .Toshkent Moliya insituti 2018 y.

2021-yil 14-iyuldagi O'RQ-701 sonli "Litsenziya, ruxsat berish va xabardor qilish tartib –taomillari to'g'risida"gi qonunlari, shuningdek Buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari va boshqa hujjatlar huquqiy normativ baza bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuning 23-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatlari² quyidagilar:

- ta'lim sohasidagi davlat yagona siyosatini amalga oshiradi;
- ta'lim sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi;
- ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, pedagog kadrlarni va ilmiy xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish, nodavlat ta'lim tashkilotlariga ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyalar (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) berish vakolatli organni ushbu sohada faoliyat boshlash to'g'risida xabardor qilish, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarga apostil qo'yish tartibini belgilaydi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari, shuningdek xorijiy davlatlar ta'lim tashkilotlarining filiallari yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi.³

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda 2024 -yil 1 yanvar holatida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalari soni 213 tani tashkil etadi. Shundan 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasasidir. Hozirda 213 ta oliygohda 1 million 300 ming nafardan ziyod talaba tahsil olib, bu ko'rsatkich yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 42 foizga oshganligini ko'rsatadi.

O'z navbatida, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishda ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari alohida o'rin tutadi. Nodavlat ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish muassislarning, kadrlar buyurtmachilarining pul va moddiy mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Ta'lim va fan darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun juda muhim. Ta'lim rivojlanishning asosiy omilidir va inson kapitaliga sarmoya kiritmasdan, barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin emas. Inson kapitali iqtisodiy o'sishning markaziy omilidir. Xususan, inson kapitali tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot o'zini o'zi ta'minlaydigan iqtisodiy o'sish uchun asosdir. Binobarin, makro va mikrodarajalarda ta'lim va iqtisodiyot o'rtasida yaqin va ijobiy bog'liqlik mavjud. Yevropa, AQSh va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalari investitsion jozibadorligi bilan ajralib turadi. AQShda oliy ta'lim muassasalari daromadlarning tarkibiy tuzilmasi oliy

² O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ 637 -sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni

³ 2021-yil 14-iyuldagi O'RQ-701 sonli "Litsenziya, ruxsat berish va xabardor qilish tartib –taomillari to'g'risida"gi qonuni

o'quv yurtlari darajasi va turiga qarab o'zgarib boradi.

Davlat oliy ta'lim muassasalarida umumiy xarajatlarni investitsiyalashda budget mablag'lari ulushi 16,4 foizni, shtat budjeti mablag'lari ulushi 22,7 foizni, mahalliy budget mablag'lari ulushi 6,6 foizni, o'qish uchun to'lovlar 22,8 foizni, nodavlat investitsiyalari va xayriyalar o'rtacha 16 foizni hamda qolgan 16 foiz qismi boshqa turli xizmatlarni ko'rsatish va tijoratlashtirish orqali keladigan daromadlar hisobiga to'g'ri keladi.⁴ Keltirilgan dalillarga asoslansak, bunda OTM umumiy xarajatlarining o'rtacha 46 foizga yaqin qismi davlat budjeti hisobiga, 54 foizdan ortiq qismi nodavlat investitsion manbalari hissasiga to'g'ri kelishini ko'ramiz.

Notijorat faoliyati asosidagi xususiy oliy ta'lim muassasalarida esa moliyalashtirish manbalari davlat oliy ta'lim muassasalaridagi holatdan birmuncha farq qilib, unda umumiy xarajatlarini investitsiyalash manbalarida talabalarning o'qish uchun to'lovlari 32,5 foizni, investitsiya manbalari 26,5 foizni, federal budget mablag'lari 12 foizga yaqin qismini, xayriya mablag'lari, grantlar va hamkorlik shartnomalari 11,1 foizni, shahar budget mablag'lari ulushi esa 1 foizni, boshqa turli xizmatlarni ko'rsatish va tijoratlashtirish orqali keladigan daromadlar 17,2 foizga yaqin qismini tashkil etgan.

Natijada notijorat faoliyati asosidagi xususiy oliy ta'lim muassasalarida davlat budjeti hisobiga investitsiyalash umumiy moliyaviy manbalarning atigi 13 foizini tashkil etgan holda, 87 foizi nodavlat investitsiya manbalari hisobiga to'g'ri kelgan.

Ustav kapitali - bu ta'lis hujjatida belgilangan doiradagi faoliyatni ta'minlash uchun ta'lischilarning (ishtirokchilarning) korxonani barpo etishda uning mulkiga qo'ygan hissalar (ulushlari, aksiyalar nominal qiymatida va hokozolar)ning pul ifodasidagi yig'indisidir. Ustav kapitalini shakllantirish jarayoni korxonada tashkiliy-huquqiy shakliga muvofiq ravishda ta'lis hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan tartibga solinadi. Ustav kapitali schyoti bo'yicha saldo uning ta'lis hujjatlarida ro'yxatdan o'tkazilgan hajmiga muvofiq bo'lishi lozim. Korxonada ustav kapitalining har qanday ko'payishi yoki kamayishi faqat ta'lischilarning qarori asosida ta'lis hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Ustav kapitalining holati va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

8310-«Oddiy aksiyalar»; 8320-«Imtiyozli aksiyalar»; 8330-«Pay va ulushlar»

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida Ustav kapitalini shakllantirishda korxonada muassislari tomonidan moddiy va nomoddiy aktivlar kiritilishi mumkin. 1-jadvalda Xususiy oliy ta'lim tashkilotlarining ustav kapitalini shakllantirishda mulklarning tasniflanishini ko'rishimiz mumkin.

1- jadval

Xususiy oliy ta'lim tashkilotlarida ustav kapitali shakllantirishda

⁴ Yakubov Shohruh Akmaljon o'g'li- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti moliyalashtirish bo'limi boshlig'i "Oliy ta'lim muassasalari moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy maqola-Iqtisodiyot va ta'lim / 2024-yil 1-son

mulklarning tarkibi⁵

Uzoq muddatli aktivlar	Joriy aktivlar
Asosiy vositalar	Pul mablag'lari
Nomoddiy aktivlar	Tovar –moddiy zaxiralar
O'rnatiladigan asbob uskunalar,tugallanmagan qurilish obyektlari	Jamiyat ta'sis hujjatlarida keltirilgan va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar

Korxonalar ta'sischilari tomonidan ustav kapitaliga o'z ulushlari hisobidan asosiy vositalarini kiritganda quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. Asosiy vositalarni ustav kapitalga kiritilishi AV-1 qabul qilish topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

Debet 0800-«Kapital qo'yilmalar»

Kredit 4610-«Ustav kapitaliga ta'sischilarning ulushlari bo'yicha qarzi».

Asosiy vositalar foydalanishga berilgandan so'ng esa quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

Debet 0100-«Asosiy vositalar»,

Kredit 0800-«Kapital qo'yilmalar».

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini faoliyatini tashkil qilish, jahon talablariga mos keladigan sifatli kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, ularni rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish, audit va soliq sohasidagi munosabatlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Shuning uchun bu sohada ko'plab ilmiy tadqiqotlar, ilmiy ishlar olib borish va uning natijalarini nodavlat oliy ta'lim muassasalarida tadqiq qilish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Zero, mamlakatimizning iqtisodiyotini rivojlantirishda, aholining munosib farovon hayot kechirishida, yoshlarimizning ilmiy-salohiyat darajasini oshirishda ta'lim xizmatlari sohasi alohida o'rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ 637 -sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni
2. 2021-yil 14-iyuldagi O'RQ-701 sonli "Litsenziya, ruxsat berish va xabardor qilish tartib –taomillari to'g'risida"gi qonuni
3. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847 son.
4. Nizamov A.B., Raxmatov Sh.A "Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion

⁵ Muallif ishlanmasi

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish” o’quv qo’llanma Buxoro. 2020-yil

5.Hojiev Mehridin Sulaymanovich “Nodavlat, notijorat tashkilotlarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish” mavzusida dissertatsiya ishi. Toshkent Moliya 2018 y.

6.Маткаримова И. А., Отажонова М. С. ГАРМОНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И СИСТЕМЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ СЧЕТОВ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 5. – С. 60-68.

7.Butanova, D. (2024). IMPORTANCE OF IMPROVING AGRICULTURAL EFFICIENCY. University Research Base, 440-444.

8.Yakubov Shohruh Akmaljon o‘g‘li - Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti moliyalashtirish bo‘limi boshlig‘i “Oliy ta’lim muassasalari moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish”mavzusidagi ilmiy maqola-Iqtisodiyot va ta'lim / 2024-yil 1-son

9.www.lex.uz internet sayti.